

ANTROPONIMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

*Nazarova Navbahor Ahrorovna,
Ingliz tilshunosligi kafedrası o'qıtuvchisi
Buxoro davlat universiteti*

Annotatsiya: Maqolada tilshunoslikda onomastikaning tarkibiy qismi bo'lgan antroponimlarning o'rganilishi, uning semantik birliklari, O'zbek tilshunos olimlarning antroponimik birliklarga oid nazariy qarashlari, diniy tasavvur va urf-odatlarining kishi nomlanishiga ta'siri haqidagi ma'lumotlar ifodalangan.

Kalit so'zlar: stilistik, lisoniy-pragmatik xususiyatlar, mifologik, madaniyat, lingvistik, antroponim, antroponimika, onomastika

Аннотация: В статье представлены сведения об изучении антропонимов, являющихся составной частью ономастики в языкознании, ее семантических единицах, теоретических воззрениях узбекских языковедов на антропонимические единицы, влиянии религиозных представлений и традиций на именование людей.

Ключевые слова: стилистические, лингвопрагматические признаки, мифологический, культурный, языковой, антропоним, антропонимия, ономастика.

Annotation: The article presents information about the study of anthroponyms, which are a component of onomastics in linguistics, its semantic units, the theoretical views of Uzbek linguists on anthroponymic units, the influence of religious ideas and traditions on naming people.

Key words: stylistic, linguistic-pragmatic features, mythological, culture, linguistic, anthroponym, anthroponymy, onomastics.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi tufayli til taraqqiyotida muhim deb hisoblangan vazifalar ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi. Tilshunoslikda alohida soha sifatida nomshunoslik fani o'zining rivojlanish va taraqqiyot bosqichlariga ega. Ayni zamonda o'zbek tili xalqimizning ijtimoiy aloqasini mukammal ta'minoti bo'lib, millatining fikr almashuv quroli sifatida xizmat qilmoqda.

Antroponimlar tilshunoslikning onomastika sohasining salmoqli qismini qamrab olgan. Antroponim – bu insonni farqlab ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladigan shaxsning atab qo'yilgan ismi. Onomastika inson ismlaridan tashqari, familiya, patronim (kishining otasining ismi), taxallus, laqab, kriptonimlar (yashirin ismlar) kabi tizimlardan iborat bo'lib, ularning barchasi insonni atash va unga murojaat qilish imkoniyatidan foydalana olish vazifasini ko'rsatuvchi ma'noli belgidir. Bu ma'no bir necha belgilar bilan ifodalanadi va aniqlanadi:

1. Antroponimning o'zi ayrim boshqa bir ob'ekt emas, balki inson ekanligini anglatishi
2. Kishining qaysi etnik guruh yoki millatga mansubligini ko'rsatishi
3. Insonning qaysi jinsga (erkak yoki ayol) tegishligini aniqlashdan iborat

Taraqqiyot bosqichlarida tilning qadimiy hodisalardan biri bo'lgan antroponimlar insoniyatning qadimiy o'tmishiga oid xalq og'zaki ijodi namunalari va yozma yodgorliklar tilida saqlanib qolganligi kishi nomlari, afsonaviy va mifologik qahramonlarning nomlarida yaqqol namoyon bo'lishi ko'rsatilgan.

Bolani nomlashda ma'lum tarixiy davr, iqtisodiy-siyosiy hayot, ma'naviy turmush doirasining turli-tuman urf-odatlarini asosiy o'rin tutadi, va bu esa kishilarning atoqli otlari qadimiy tarixga ega ekanligidan dalolat beradi. Aynan, diniy tasavvur va qarashlar bolaning nomlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Turkiy xalqlarning eng qadimgi antropoleksmalaridan hisoblangan, masalan, Kultegin, Qoraxon, Oqbo'sh, Bilkaxoqon, Qorakur, Burisangmusht ismlarini turkiy xalqlarning V-VII asrlar tarixini o'zida ifodalagan O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari matnlarida uchratish mumkin. Zamon va davrlar o'tishi bilan ismlar eskiradi va iste'moldan chiqib, yangi-yangi nomlar ularning o'rnini egallay boshlaydi. Insonlarning intilish va ideallari, orzu-umidlari bilan bog'liq ismlar uzoq umrguzaronlik qiladi. Aynan hozirgi davr insonlari ismlarining asosiy qismi xuddi shunday nomlardan tashkil topgan.

Antroponim mavzusiga oid S.I.Garagulyaning "Shaxs nomi madaniy va zamonaviy ingliz tilining tarixiy kategoriyasi sifatida" nomli tadqiqotida izlanuvchi nomlarning madaniy jihatdan asoslangan tizimini yaratadi. Ular quyidagilar:

1. Milliylikka asoslangan nomlar bo'lib ular tashqi ko'rinish, hatti-harakat, obrazni anglatuvchi xususiyat mavjudligi (Lincoln, Oliver);

2. Puritan harakati asosida unga oid nomlarning vujudga kelishi (Faith, Hope, , Be-thankful, Love,). Shuningdek, abstrakt (mavhum) otlar ya'ni "virtue" , "mercy" , "grace" , , "sage" , "prudence" , "charity" ismlar sifatida qo'llana boshlandi. Bu orqali nomlarning ma'lum jarayonda madaniyatning naqadar ustuvorligini anglatadi.

3. Muqaddas kitob bo'lmish Injilda keltirilgan nomlar (Israel, Abraham);

4. Asar qahramonlari, san'atkorlar, taniqli yozuvchilar, xonandalarning nomlari (Madonna, Elvis)¹

Shuni ta'kidlash kerakki, kulturologik vazifaga tayangan holda millat yoki xalq madaniyatidan kelib chiqib, antroponimlar milliy-madaniy ahamiyat kasb etadi.

Atoqli otlarning ijtimoiy va tarixiy shartlarining naqadar asosli ekanligini tadqiqotchi V.A.Nikonov quyidagicha ifoda etadi: "Shaxs ismlari faqat jamiyatda va jamiyat uchun mavjud, zero, ular har doim ijtimoiydir."²

Antroponimlar xalqning ijtimoiy aloqasining mukammal ta'minoti bo'lib, millatning fikr almashuv quroli sifatida xizmat qilgan ekan.

O'zbek tilshunosligining keying taraqqiyotida onomastika bo'yicha keng qamrovli izlanishlar olib borilmoqda. Navbatdagi vazifa onomastik birliklarning badiiy asarlarda berilishi masalasidir. Shuningdek, bu lingvistik tushunchaning stilistik, lisoniy-pragmatik xususiyatlarini ochib berish ham dolzarflik kasb etadi.

Buxorolik tilshunos olim E.Qilichev antroponimlarning stilistik qo'llanilishi haqida o'zining tadqiqotlarida yozuvchi S.Ayniy asarlarida qo'llanilgan antroponimlar haqida quyidagilarni bayon etadi: "Yozuvchi (S.Ayniy) asarlari strukturasiidagi antroponimlar tasvirlanayotgan voqea mazmuniga mos holda uni badiiy aks ettirish uchun xizmat qilgan. Uning asarlarida so'zlamaydigan ism yoki laqab yo'q, desa ham bo'ladi. Deyarli har bir antroponim tasviriy bo'lib, nimadimi aks ettiradi"³.

¹ Гарагуля С.И. Английское личное имя как объект изучения языка, истории и культуры. – Белгород: Изд-во БелГТАСМ, 2002. – 382 с. – С. 110.

² Никонов В.А. На пути к теории собственных имен // Конференция по топонимике Северо-Западной зоны СССР. – Рига, 1966. – С. 69-73.

³ Қиличев Э. Айний асарларида антропонимларнинг стилстик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1978, 4

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

Antroponimlarni tilshunoslikda tahlil qilish, nazariy jihatdan tadqiq qilishda quyidagicha xulosa chiqarildi:

-til lug'at tarkibining ajralmas bir qismi hisoblangan antroponimlar morfologik va sintaktik jihatdan ma'lum til normalariga, qonun-qoidalariga ega;

-antroponimlar qolgan turdosh otlardan konkret shaxs-individual odamni boshqa ko'pchilik odamlardan farqlash bilan ajralib turadi;

-onimik leksemalar ma'lum bir tarixiy davrga ega bo'lib, diniy tasavvur va qarashlarning ham kishi nomlanishida ta'sir doirasi keng bo'lib, kishining qaysi etnik guruh yoki millatga mansubligini ko'rsatadi;

-antroponimlar tasviriy hisoblanib, asarlarda aksariyat asar qahramonlarini stilistik jihatdan badiiy aks ettirish uchun qo'llaniladi;

- kulturologik vazifaga tayangan holda millat yoki xalq madaniyatidan kelib chiqib, antroponimlar milliy-madaniy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nazarova, N. (2022). Antroponimlarning o'rganilishi. *Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 110-112.
<http://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/59>.
2. 2. Nazarova Navbahor Ahrorovna. (2022). Semantic Properties of Anthroponyms. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18. <https://doi.org/10.21070/ijins.v18i.626>
- Kodirova Kholida Khayriddin kizi. (2022). The Analysis of Illocutionary Acts in Adventures of Tom Sawyer by Mark Twain. *Miasto Przyszłości*, 28, 324–328.
<http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/648>
4. 4. Nargiza Bobojonova Jumaniyozovna. (2022). The Term Concept in Modern Linguistics. *Miasto Przyszłości*, 28, 297–302. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/643>
5. Yuldasheva Feruza Erkinovna. (2021). POLITENESS MARKERS IN SPOKENLANGUAGE. *Euro-Asia Conferences*, 37–40. Retrieved from <http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/528>.
6. Zarina, U., & Nozanin, G. (2022). The main features of description in “the old man and the sea” by ernest hemingway. *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 66–67. Retrieved from <https://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/45>
7. Rasulov, Z. I., & Saidov, K. S. (2022). Linguistic Economy as an Inseparable Law of Language Evolution. *Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 8–12.
https://uniwork.buxdu.uz/resurs/14162_1_B0C234AB2BF7FF280FE2B272EAEA790F05DDC162.pdf.
8. Izomovich, R. Z., & Shavkatovich, S. X. UDC: 82 REDUCTION AS THE WAY OF THE LANGUAGE ECONOMY MANIFESTATION. *SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY*, 68(15), 41-44.
https://buxdu.uz/media/jurnallar/ilmiy_axborot/ilmiy_axborot_6_son_2020.pdf#page=70.